

Date: 13thDecember-2024

ONA- VATANIM

Zaylobiddinova Sayyoraxon Farxodjon qizi

Andijon viloyati Izboskan tumani 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Dunyoda tengsizim ,betakror o'lkam,
Sensan bu olamda barchadan ko'rkam.
Bog'larda barq urar bahoriy ko'klam,
Sen uchun jon fido, ey ona-Vatan!

Tinchlikni saqlagan qalqonlaring bor,
Jon nisor etguvchi o'g'lonlaring bor.
Hech kimga daxlsiz qo'rg'onlaring bor,
Sen uchun jon fido, ey ona-Vatan!

Ta'rifing qilmoqqa tillar ojizdur,
Qancha she'rlar yozsam shunchalar ozdur.
Yuz o'ttiz xil millat do'st-u hamrozdur,
Sen uchun jon fido, ey ona-Vatan!

Yayragin yashnagin, go'zal chamanim,
Oltin tuprog'ingda ulg'aydi tanim.
Sen bilan bog'langan orzu umidim,
Sen uchun jon fido, ey ona-Vatan!

